

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TILLARNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Yuldasheva Dilshoda To'liqinova,

Farg'ona davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi (PhD)

Muhammadjonova Diloromxon,

"Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi 25.29 – guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ona tili va xorijiy tillarni o'rgatishning pedagogik hamda psixologik asoslari kompleks tarzda tahlil etiladi. Maktabgacha yosh davrining nutq rivojlanishidagi o'rni, bu davrning sezgir (sensitiv) bosqich sifatida ahamiyati hamda bolalarda tilni o'zlashtirish jarayonining tabiiy mexanizmlari ilmiy yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, bolalarning individual-psixologik xususiyatlari, jumladan, ularning diqqat, xotira, tafakkur, idrok va emotsional rivojlanish darajasi til o'rganish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi ochib beriladi. Maqolada til o'rgatishning asosiy pedagogik tamoyillari – kommunikativlik, tizimlilik, izchillik, ko'rgazmalilik va individuallashtirish masalalari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, til o'rgatish jarayonini bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish, ta'limni qiziqarli va motivatsion muhitda tashkil etish, shuningdek, kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, til o'rgatish metodikasi, nutq rivojlanishi, psixologik xususiyatlar, pedagogik tamoyillar, kommunikativ yondashuv, o'yin faoliyati, bilingvizm, interaktiv metodlar, sensitiv davr.

Аннотация. В данной научной статье комплексно анализируются педагогические и психологические основы обучения детей родному и иностранным языкам в дошкольных образовательных организациях. Освещается значение дошкольного возраста в развитии речи, его важность как чувствительного периода, а также естественные механизмы усвоения языка у детей на научной основе. Также раскрывается влияние индивидуально-психологических особенностей детей, в частности уровня развития внимания, памяти, мышления, восприятия и эмоционального состояния, на эффективность изучения языка.

В статье научно рассматриваются основные педагогические принципы обучения языку — коммуникативность, системность, последовательность, наглядность и индивидуализация. Согласно результатам исследования, высокая эффективность достигается при гармонизации процесса обучения языку с психологическими особенностями развития детей, организации обучения в интересной и мотивационной среде, а также при использовании подходов, направленных на формирование коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: дошкольное образование, методика обучения языку, развитие речи, психологические особенности, педагогические принципы, коммуникативный подход, игровая деятельность, билингвизм, интерактивные методы, чувствительный период.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the pedagogical and psychological foundations of teaching native and foreign languages to children in preschool educational institutions. It highlights the importance of the preschool age period in speech development, its significance as a sensitive stage, as well as the natural mechanisms of language acquisition in children based on scientific approaches. The article also explores how individual psychological characteristics of children—such as attention, memory, thinking, perception, and emotional development—affect the effectiveness of language learning.

The study examines the main pedagogical principles of language teaching, including communicativeness, systematicity, consistency, visualization, and individualization. According to the results of the research, higher efficiency is achieved by harmonizing the language learning process with

children's psychological development characteristics, organizing education in an engaging and motivational environment, and applying approaches aimed at forming communicative competence.

Keywords: *preschool education, language teaching methodology, speech development, psychological characteristics, pedagogical principles, communicative approach, play activity, bilingualism, interactive methods, sensitive period.*

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida bir nechta tillarni bilish shaxsning intellektual salohiyati va ijtimoiy moslashuvchanligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga erta yoshdan boshlab tillarni o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha yosh davri inson rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda nutq faoliyati, tafakkur jarayonlari va kommunikativ ko'nikmalar intensiv rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ona tili va xorijiy tillarni o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari keng qamrovli va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi, nutqiy faoliyati, tafakkuri va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda nutq, idrok, xotira va tafakkur intensiv shakllanadi. Til esa bu jarayonlarning markaziy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ona tili va xorijiy tillarni o'rgatish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga asoslangan holda olib borilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda til o'rgatish masalasi pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida keng o'rganilgan.

D.B. Elkonin va J. Piaget tadqiqotlarida esa bolalarning nutq va tafakkur rivojlanishi, o'yin faoliyatining ahamiyati hamda kognitiv rivojlanish bosqichlari asoslab berilgan.

O'zbek olimlaridan J.J. Jalolov chet til o'qitishning kommunikativ metodini, N. To'xtasinov maktabgacha pedagogikaning asoslarini, A. Nurmonov esa tilning nazariy jihatlarini yoritgan. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi esa maktabgacha ta'limda til o'rgatishning amaliy yo'nalishlarini belgilaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili til o'rgatish jarayoni pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda, o'yin va kommunikativ yondashuvlar asosida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda maktabgacha ta'limda bolalarga tillarni o'rgatish masalasi nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Nazariy bosqichda pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Amaliy bosqichda kuzatish, suhbat va qiyosiy-tahlil metodlaridan foydalanildi. Bolalarning nutqiy rivojlanishi va til o'zlashtirish jarayoni o'rganildi.

Natijalar umumlashtirish va tizimlashtirish orqali ilmiy xulosalarga keltirildi.

Tahlillar va natijalar. Pedagogik jihatdan qaraganda, maktabgacha ta'limda til o'rgatish tizimi ilmiy asoslangan didaktik tamoyillarga tayanadi. Avvalo, izchillik va tizimlilik tamoyili muhim bo'lib, til o'rgatish oddiydan murakkabga qarab bosqichma-

bosqich amalga oshiriladi. Bolalar avval tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni, keyin so'zlarni, undan so'ng gap tuzishni o'rganadilar. Bu jarayonda ona tilining o'rni alohida bo'lib, u bola tafakkurining shakllanishida asosiy vosita hisoblanadi. Ona tilida mustahkam nutqiy baza yaratilmasdan turib xorijiy tilni samarali o'rganish qiyin kechadi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuv ham muhim pedagogik asoslardan biridir. Bu yondashuvga ko'ra, til o'rganishning asosiy maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirishdir. Shu bois Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ko'proq suhbat, savol-javob, rolli o'yinlar, sahnalashtirish kabi faol metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar bolalarda tilni amaliy qo'llash, erkin fikr bildirish va nutqiy faollikni oshiradi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ham til o'rgatishda muhim o'rin egallaydi. Bolalar abstrakt tushunchalarga qaraganda aniq va ko'rinarli obyektlarni yaxshiroq qabul qiladi. Shu sababli rasmi kartochkalar, predmetlar, video va audio materiallar, qo'g'irchoqlar yordamida o'qitish samaradorligi ortadi. Ayniqsa, xorijiy til o'rgatishda vizual va eshitish materiallarining uyg'unligi muhim hisoblanadi.

Integrativ yondashuv esa til o'rgatishni boshqa ta'lim sohalarini bilan bog'lashni nazarda tutadi. Masalan, rasm chizish jarayonida rang nomlarini, musiqa mashg'ulotlarida qo'shiqlar orqali yangi so'zlarni o'rgatish mumkin. Bu usul bolalarning tilni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi va o'rganilgan materialni mustahkamlaydi.

Psixologik jihatdan esa maktabgacha yoshdagi bolalarda til o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng muhim omillardan biri bu sezitiv davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarning miya faoliyati til o'zlashtirishga juda moslashuvchan bo'ladi, ular yangi tovushlarni tez qabul qiladi va talaffuzni oson o'zlashtiradi. Shu sababli xorijiy tilni aynan maktabgacha yoshdan boshlash samarali natija beradi.

Bolalarning o'rganish jarayonida taqlid qilish xususiyati muhim rol o'ynaydi. Ular kattalarning nutqini eshitib, uni takrorlash orqali tilni o'zlashtiradilar. Shuning uchun tarbiyachi nutqi grammatik jihatdan to'g'ri, ravon va ifodali bo'lishi lozim. Bundan tashqari, bolalarda diqqat va xotira qisqa muddatli bo'lganligi sababli mashg'ulotlar qiziqarli, qisqa va turli faoliyat turlari bilan boyitilgan bo'lishi zarur.

Emotsional-psixologik muhit ham katta ahamiyatga ega. Ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni erkin muloqot qilishga undaydi. Salbiy muhit esa aksincha, bolalarda qo'rquv va tortinchoqlikni keltirib chiqaradi, bu esa til o'rganish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham til o'rgatish samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalari, interaktiv o'yinlar, audio va video materiallar bolalarning eshitish va ko'rish orqali o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, xorijiy tilni o'rgatishda autentik materiallardan foydalanish talaffuz va eshitish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim omil hisoblanadi. Bolaning til o'rganish jarayoni faqat Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan cheklanib qolmasligi, balki uy sharoitida ham davom etishi kerak. Ota-onalar bolalar bilan suhbatlashish, kitob o'qib berish, oddiy so'z va iboralarni takrorlash orqali bu jarayonni qo'llab-quvvatlashi lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos jihatlaridan biri – ularning yuqori darajadagi taqlidchanligi va sezgirligidir. Ushbu davr til o'rganish uchun eng qulay davr hisoblanib, bola atrof-muhitdagi nutqiy birliklarni tez va oson o'zlashtiradi. Ayniqsa, fonetik tizimni egallashda bolalar kattalarga nisbatan ancha yuqori imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Bolalarning nutq rivojlanishi ularning umumiy psixik rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Diqqatning beqarorligi, ixtiyorsiz xotiraning ustunligi, obrazli tafakkurning rivojlanganligi kabi xususiyatlar til o'rgatish metodikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bolalarga til o'rgatishda murakkab grammatik tushuntirishlardan ko'ra, vizual, eshitish va harakatga asoslangan metodlardan foydalanish samaraliroq hisoblanadi.

Bundan tashqari, bolalarning emotsional holati ham til o'rganish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy emotsional muhitda o'qitilgan bola yangi so'z va iboralarni tezroq o'zlashtiradi va ularni faol nutqda qo'llashga intiladi.

Til o'rgatishning pedagogik asoslari va tamoyillari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida til o'rgatish jarayoni ma'lum pedagogik tamoyillarga asoslanishi lozim. Eng avvalo, kommunikativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til o'rganishning asosiy maqsadi – bolani erkin muloqotga o'rgatishdan iborat. Shuning uchun ta'lim jarayonida real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlardan foydalanish zarur.

Ko'rgazmalilik tamoyili ham alohida ahamiyatga ega. Rasmlar, predmetlar, video va audio materiallar orqali taqdim etilgan ma'lumotlar bolalar tomonidan tez va samarali qabul qilinadi. Shu bilan birga, izchillik va tizimlilik tamoyillari asosida bilimlar bosqichma-bosqich berilishi, o'rganilgan materiallar muntazam ravishda mustahkamlab borilishi lozim.

Nutq rivojlanishining psixologik mexanizmlari

Til o'rganish jarayoni murakkab psixologik mexanizmlar asosida amalga oshadi. Bu jarayon, avvalo, tinglash va tushunishdan boshlanadi. Bola dastlab nutqni passiv qabul qiladi, keyinchalik esa uni faol qo'llash bosqichiga o'tadi.

Nutq rivojlanishida xotira muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtiyorsiz xotira kuchli rivojlangan bo'lib, ular qiziqarli va emotsional materiallarni oson eslab qoladi. Shu sababli, qo'shiqlar, she'rlar va o'yinlar orqali o'rgatilgan til materiallari samaraliroq o'zlashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tillarni o'rgatish jarayoni ko'p omilli, murakkab va tizimli yondashuvni talab etadigan pedagogik-psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi, avvalo,

bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini chuqur hisobga olish bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha yosh davrining sezgir (sensitiv) bosqich ekanligi, ayniqsa, fonetik va leksik birliklarni o'zlashtirishda yuqori imkoniyatlar mavjudligini tasdiqlaydi. Shu sababli, aynan ushbu davrda til o'rgatish ishlarini to'g'ri tashkil etish kelgusida bolaning til kompetensiyasini shakllantirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalarda nutq rivojlanishi ularning umumiy psixik rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlarining rivojlanganlik darajasi til o'rganish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ixtiyorsiz xotiraning ustunligi va emotsional qabul qilishning yuqori darajada rivojlanganligi sababli, ta'lim jarayonida qiziqarli, jonli va o'yin asosidagi metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, til o'rgatishda kommunikativ yondashuv yetakchi o'rin tutishi zarur. Chunki til, avvalo, muloqot vositasi sifatida o'zlashtiriladi. Shu bois, mashg'ulotlar jarayonida bolalarni real kommunikativ vaziyatlarga jalb etish, ularni erkin fikr bildirishga undash, nutqiy faoliyatni rag'batlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'rgazmalilik, izchillik, tizimlilik va individuallashtirish tamoyillariga amal qilish ta'lim sifatini yanada osonlashtiradi.

Xulosa. Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tillarni o'rgatish jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilganda, nafaqat bolalarning nutqiy kompetensiyasi rivojlanadi, balki ularning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy izlanishlar ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
4. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1989.
5. Piaget J. Bolalarda tafakkur va nutq rivojlanishi. – Moskva: Progress, 1994.
6. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
7. To'xtasinov N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan, 2018.
8. Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
9. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Ilk qadam davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.